

**THE DEVELOPMENT AND DISTINCTIVE FEATURES OF ARAB MEDIA**

*Akbarali A. Akbarov*

*PhD Student*

*Department of Arabic Studies*

*Tashkent State University of Oriental Studies*

*Email: [akbarjon.9718@gmail.com](mailto:akbarjon.9718@gmail.com)*

*Uzbekistan, Tashkent*

**ABOUT ARTICLE**

**Key words:** Arabic media, mass media, Al-Jazeera, Al-Arabiya, digital platforms, global information space, radio and television.

**Received:** 06.03.25

**Accepted:** 08.03.25

**Published:** 10.03.25

**Abstract:** This article examines the growth of Arab media from traditional oral communication to modern platforms, including newspapers, radio, and television. It highlights the impact of global channels like Al-Jazeera and Al-Arabiya, along with the integration of digital technologies. The analysis underscores Arab media's evolving role and strengthened position in the international information landscape.

**ARAB MEDIYASI TARAQQIYOTI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

*Akbarali A. Akbarov*

*Tayanch doktorant*

*Arabshunoslik oliy maktabi*

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti*

*Email: [akbarjon.9718@gmail.com](mailto:akbarjon.9718@gmail.com)*

*O'zbekiston, Toshkent*

**MAQOLA HAQIDA**

**Kalit so'zlar:** Arab mediyasi, ommaviy axborot vositalari, Al-Jazeera, Al-Arabiya, raqamli platformalar, global axborot maydoni, radio va televideniye.

**Anotatsiya:** Ushbu maqola arab mediyasining an'anaviy og'zaki aloqa tizimlaridan boshlab zamonaviy platformalargacha bo'lgan rivojlanishini o'rganadi. Unda gazeta, radio va televideniylarning shakllanishi, Al-Jazeera va Al-Arabiyya kabi xalqaro kanallarning ta'siri hamda raqamli texnologiyalarning integratsiyasi ta'kidlanadi. Tahlil arab mediyasining xalqaro axborot maydonidagi rivojlanayotgan o'rni va mavqeini mustahkamlashini ko'rsatadi.

## РАЗВИТИЕ АРАБСКИХ СМИ И ИХ ОСОБЕННОСТИ

*Акбарали А. Акбаров*

*Докторант*

*Висшая школа арабистики*

*Ташкентский государственный университет востоковедения*

*Email: [akbarjon.9718@gmail.com](mailto:akbarjon.9718@gmail.com)*

*Узбекистан, Ташкент*

## О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** арабские СМИ, средства массовой информации, Ал-Жазира, Ал-Арабия, цифровые платформы, глобальное информационное пространство, радио и телевидение.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается развитие арабских средств массовой информации от традиционных устных форм общения до современных платформ, включая газеты, радио и телевидение. Особое внимание уделяется влиянию глобальных каналов, таких как Ал-Жазира и Ал-Арабия, а также интеграции цифровых технологий. Анализ подчеркивает эволюционирующую роль арабских СМИ и их укрепляющиеся позиции в международном информационном пространстве.

**Kirish:** Ma'lumki, arab mediyasi bugungi kunda dunyoning eng yirik va ta'sirchan axborot manbalaridan biri hisoblanadi. U matbuot, radio, televideniya va raqamli platformalar orqali jadal rivojlanib, xalqaro axborot maydonida muhim o'rin egallagan. Arab mediasining shakllanishi uzoq tarixga ega bo'lib, uning dastlabki ko'rinishlari og'zaki an'anaviy xabarchilik tizimiga asoslangan edi.

Arab zamonaviy ommaviy axborot vositalari XIX-asr oxiri va XX-asr boshlarida shakllana boshladi. Arab dunyosida gazeta va jurnalchilik rivojlandi, birinchi mustaqil gazetalarning paydo bo'lishi esa arab mamlakatlarining mustamlakachilikdan xalos bo'lish jarayonlari bilan bog'liq edi. Ayniqsa, XX-asrning o'rtalarida radio va televideniya arab jamiyatida axborot tarqatishning eng muhim vositalariga aylandi. Misr, Livan va Saudiya Arabistonida milliy telekanallar faoliyat yurita boshladi.

Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi bilan arab mediyasi global axborot makonida o'zining o'rnini yanada mustahkamladi. Xususan, "Al-Jazeera" va "Al-Arabiyya" kabi xalqaro axborot telekanallari arab va g'arb auditoriyasi uchun muhim axborot manbaiga aylandi. XXI-asrga kelib esa internet va ijtimoiy tarmoqlarning paydo bo'lishi bilan arab mediyasi yangi bosqichga ko'tarildi.

Bugungi kunda arab mediyasi an'anaviy va zamonaviy texnologiyalarni o'zida mujassam etgan holda rivojlanishda davom etmoqda. Sun'iy intellekt, raqamli platformalar va global media

kompaniyalari bilan hamkorlik arab ommaviy axborot vositalarining xalqaro axborot maydonidagi o‘rnini mustahkamlamoqda

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Tadqiqot doirasida arab mediyasi va uning rivojlanish jarayonlarini o‘rganish maqsadida bir qator ingliz va rus tilaridagi ilmiy manbalardan foydalanildi. Ingliz tilida N. Mellor, N. Sakr, J.B. Alterman, D.A. Boyd, P.N. Xovard va M.M. Husayn shunidek, rus tilida A.V. Fedorov hamda V.A. Kuznetsov asarlari shular jumlasidandir. Tadqiqot jarayonida mavjud manbalar tavsifiy, tizimli-struktural va komponentli tahlil usullari asosida o‘rganildi. Shu bilan birga, mavjud ma’lumotlarni qiyosiy tahlil qilish orqali arab mediyasining tarixi, zamonaviy holati va istiqbollari haqida xulosalar chiqarildi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, arab mediyasi o‘zining uzoq tarixiy ildizlaridan boshlab zamonaviy raqamli platformalar davrigacha katta o‘zgarishlarni boshdan kechirgan. Ushbu rivojlanish bosqichlari matbuot, radio, televideniya hamda internet va ijtimoiy tarmoqlarning integratsiyasi orqali amalga oshdi.

Arab matbuoti rivojining dastlabki bosqichi XIX asr o‘rtalari – XX asr boshiga to‘g‘ri keladi. Bu davrda matbuot asosan turli imperiyalar tarkibida bo‘lgan davlatlarda hukumat tomonidan boshqarilgan. 1828-yilda Misrda chiqarilgan “Al-Vaqa’i al-Misriyya” arab tilidagi birinchi rasmiy gazeta hisoblanadi. Ushbu gazeta Misr hukmdori Muhammad Ali Poshoning tashabbusi bilan tashkil etilgan bo‘lib, uning asosiy maqsadi rasmiy farmonlar, davlat qarorlari va hukumat faoliyatiga oid axborotlarni aholiga yetkazish edi. Bu davrda arab matbuoti asosan davlat manfaatlarini himoya qilish va rasmiy xabarlarini tarqatish vositasi sifatida xizmat qilgan. Dastlabki gazetalar cheklangan auditoriyaga mo‘ljallangan bo‘lib, ularning aksariyati hukumat nazoratida edi.

Biroq, XIX asr oxirlariga kelib ijtimoiy va siyosiy muammolarni yoritadigan mustaqil nashrlar shakllana boshladi. Xususan, Livan va Suriya hududlarida arab intellektual doiralari tomonidan tashkil etilgan “Al-Muqtataf” (1876) va “Al-Mashriq” (1898) jurnallari arab madaniyati va ilm-fanning rivojlanishiga katta hissa qo‘shdi.

Shu tariqa, arab matbuotining dastlabki bosqichi uning rasmiy axborot vositasi sifatida shakllangan davri bo‘lib, keyinchalik ijtimoiy va siyosiy hayotga ta’sir o‘tkazuvchi omilga aylanib bordi.

XX asr boshi – 1950-yillarni o‘z ichiga olgan mustamlakachilik davrida matbuot mustamlakachilik siyosatining bir qismi sifatida ishlatila boshlandi. Ko‘pgina gazeta va jurnallar mustamlakachi davlatlarning manfaatlariga xizmat qilgan bo‘lsa-da, arab ziyolilari va milliy harakat yetakchilari o‘z fikrlarini ifoda etish uchun matbuotni vosita sifatida qo‘llay boshladilar. Bu davrda arab matbuoti ikki asosiy yo‘nalishda rivojlandi. Bir tomondan, Yevropa davlatlari tomonidan nazorat qilinadigan gazetalarda (“Le Journal Egyptien” (Misr), “La Dépêche

Algérienne” (Jazoir) va boshqalar) asosan hukumatning rasmiy qarorlari va mustamlakachilik siyosatini targ‘ib qiluvchi materiallar chop etilgan bo‘lsa, boshqa tomondan, arab millatchilik harakatlari kuchayib borar ekan, arab tilidagi gazetalarda milliy mustaqillik g‘oyalari faol ilgari surila boshlandi. Jumladan, Misrda “Al-Ahram” (1875) va “Al-Muqattam” (1889) kabi gazetalar asta-sekin mustaqillik tarafdorlarining ovozigacha aylana bordi, “Al-Basa’ir” (Jazoir) va “Al-Zahra” (Tunis) kabi matbuot organlari mustamlakachilarga qarshi kurashda muhim rol o‘ynadi.

Mustamlakachilik matbuoti o‘zbek xalqining jadidchilik davri matbuotiga o‘xshash tarzda rivojlangan bo‘lib, u milliy ongini uyg‘otish, mustaqillik g‘oyalarini yoyish va arab jamiyatlarini g‘arb madaniy ekspansiyasidan himoya qilishga qaratilgan edi. Ayniqsa, 1920-1930-yillarda Falastinda boshlangan ozodlik harakatlari davrida matbuot xalqning asosiy axborot manbaiga aylandi. “Filastin” gazetasi Falastin muammosi haqida xalqaro jamoatchilikka ma’lumot berib, milliy kurashni qo‘llab-quvvatlagan nashrlardan biri bo‘ldi.

1950–1980-yillarda arab davlatlari mustaqillikka erishganidan so‘ng, milliy matbuot yangi bosqichga kirdi. Ko‘plab arab mamlakatlarida matbuot davlat siyosatining muhim vositasiga aylandi. Hukumat nazoratidagi gazeta va jurnallar davlatning ichki va tashqi siyosatini qo‘llab-quvvatlashga xizmat qildi, biroq shu bilan birga, nisbatan mustaqil nashrlar ham shakllana boshladi. Ushbu davrda matbuotning rivojlanishi bir necha asosiy omillar bilan bog‘liq edi.

Birinchiidan, milliy davlatlarning shakllanishi bilan birga matbuot axborot tarqatish va jamoatchilik fikrini shakllantirishning asosiy vositasiga aylandi. Misol uchun, Misrda “Al-Ahram” gazetasi hukumatning rasmiy pozitsiyasini aks ettiruvchi yetakchi nashrga aylandi, u orqali prezident Jamol Abdul Nosir o‘zining panarabizm g‘oyalarini ilgari surgan.

Ikkinchiidan, bu davrda arab dunyosida davlatga qarashli va xususiy matbuot organlari orasidagi farq keskin sezila boshladi. Jazoir va Liviya kabi mamlakatlarda matbuot to‘liq davlat nazoratida bo‘lib, u hukumat manfaatlariga xizmat qilgan bo‘lsa, Misr, Livan va Tunisda xususiy va nisbatan mustaqil nashrlar ham faoliyat yuritib, ijtimoiy-siyosiy masalalarni muhokama qilgan.

Uchinchiidan, 1950-1980-yillar arab matbuotida mafkuraviy kurashning kuchayishi bilan ajralib turdi. Ayrim davlatlar G‘arb bilan yaqinlashishga harakat qilgan bo‘lsa, boshqalari sovet ta’sir doirasiga kirgan. Bu esa matbuotning turli mafkuraviy yo‘nalishlarda rivojlanishiga olib keldi. Masalan, Iroq va Suriya kabi davlatlarda matbuot hukumatning sotsialistik siyosatini targ‘ib qilgan bo‘lsa, Saudiya Arabistonida matbuot islomiy qadriyatlarni himoya qilishga qaratilgan edi.

“Shuningdek, bu davrda arab matbuoti xalqaro axborot maydoniga chiqish uchun harakat qildi. Xususan, Londonda nashr qilina boshlagan “Al-Hayat” va “Asharq Al-Awsat” kabi gazetalar xabarlarini xalqaro auditoriyaga yo‘naltirilgan edi” (Rugh, 2004, p. 78).

Mustaqillik davrida arab matbuoti nafaqat axborot tarqatish, balki jamiyatni tarbiyalash va siyosiy jarayonlarga ta’sir o‘tkazish vositasiga aylandi. Biroq, senzura va siyosiy bosimlar tufayli

mustaqil jurnalistikaning imkoniyatlari cheklangan bo‘lib, matbuot ko‘pincha davlat nazoratidagi propagandaning bir qismi sifatida faoliyat yuritgan.

1990-yillardan boshlab arab matbuoti sezilarli o‘zgarishlarga uchradi va zamonaviy bosqichga kirdi. Globallashuv, internet texnologiyalarining jadal rivojlanishi va sotsial media platformalarining paydo bo‘lishi natijasida an’anaviy bosma nashrlar yangi raqamli formatga moslashishga majbur bo‘ldi.

Bu davrga kelib an’anaviy bosma nashrlarning o‘rnini internet nashrlari egallay boshladi. Bugungi kunda ko‘plab yirik arab gazetalarining bosma versiyalari kamayib, ularning onlayn platformalari keng rivojlanmoqda. Masalan, “Al-Hayat”, “Al-Quds al-Arabiy”, “Al-sharq al-Avsat” kabi yirik nashrlar internet orqali axborot yetkazish modeliga to‘liq moslashdi. Bunday o‘zgarishlar media iste’molining zamonaviy tendensiyalariga bog‘liq bo‘lib, arab auditoriyasi endilikda yangiliklarni ko‘proq mobil ilovalar, ijtimoiy tarmoqlar va mustaqil bloglar orqali kuzata boshladi. Mustaqil jurnalistika va fuqarolik jurnalistikasi kengaya boshladi. Ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanishi natijasida arab davlatlarida senzura cheklovlariga qaramay mustaqil jurnalistlar o‘z kontentlarini YouTube, Twitter va Facebook kabi platformalarda e‘lon qilish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Jumladan, “Arab Bahori” voqealari (2011) davrida Misr va Tunisda blogerlar va mustaqil jurnalistlar ijtimoiy tarmoqlardan foydalangan holda namoyishchilarni tashkil qilgan, bu esa an’anaviy davlat nazoratidagi matbuotdan mustaqil axborot oqimini yaratdi” (Hafez, 2019, p. 147). Bu davrga kelib media konsolidatsiyasi jarayoni davom etmoqda. Ko‘plab arab mamlakatlarida matbuot yirik media holdinglar tomonidan nazorat qilina boshladi. Masalan, Saudiya Arabistonida “Saudi Research and Media Group” (SRMG), BAAda esa “Abu Dhabi Media Company” va “Dubai Media Incorporated” yirik gazeta va televideniye kanallariga egalik qildi. Bu esa matbuot mustaqilligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi.

Zamonaviy davrga kelib sun’iy intellekt va media texnologiyalari arab matbuotida faol qo‘llanila boshladi. Yirik nashrlar AI asosidagi avtomatlashtirilgan kontent yaratish tizimlarini joriy etib, real vaqt rejimida yangiliklarni qayta ishlash va auditoriya talablariga moslashtirildi (Ayish, 2017, p. 95).

Hozirgi arab matbuoti raqamli transformatsiya jarayonidan o‘tmoqda. Bunda an’anaviy nashrlarning kamayishi, ijtimoiy tarmoqlarning kuchayishi, senzura va davlat nazorati, shuningdek, mustaqil axborot platformalarining rivojlanishi asosiy tendensiyalar sifatida ko‘zga tashlanadi.

Arab televideniyesi haqida gapiradigan bo‘lsak, u mintaqadagi eng muhim ommaviy axborot vositalaridan biri bo‘lib, siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayotga katta ta’sir ko‘rsatib kelmoqda. “Arab mamlakatlarida televideniya dastlab XX asr o‘rtalarida paydo bo‘lgan bo‘lsa-da, u juda tez rivojlandi va bugungi kunda global maydonda ham muhim rol o‘ynamoqda. Sun’iy

yoʻldosh televideniyesi, raqamli texnologiyalar va internet orqali axborot yetkazish arab dunyosida axborot tarqatish jarayonini tubdan oʻzgartirdi” (Alterman, 1998, p. 12).

Oʻtgan asrning 50-70 yillarida arab mamlakatlaridagi televideniye tizimi ham davlat nazorati ostida boʻlib, asosan siyosiy va madaniy targʻibot vositasi sifatida ishlatilgan. Koʻpgina mamlakatlarda televideniye hukumatlar tomonidan bevosita moliyalashtirilgan va senzura qilinib, axborot oqimi qatʻiy nazorat ostida boʻlgan.

1970-yillarga kelib arab mamlakatlarining iqtisodiy imkoniyatlari sezilarli darajada oshdi. Neft narxlarining koʻtarilishi televideniya katta sarmoya kiritish imkonini berdi. Ushbu davrda arab dunyosida televideniye sohasi modernizatsiya qilina boshlandi hamda yangi texnologiyalar, xususan, rangli televideniye va sunʻiy yoʻldosh texnologiyalari keng joriy etildi.

1970–1980-yillarda Arab mamlakatlarida televideniye tizimining rivojlanishi asosan uch asosiy yoʻnalishda amalga oshdi:

1. 1970-yillarda Misr, Livan va Marokashda rangli televideniye ishga tushirildi. Bu Gʻarb televideniyesining taʼsiri ostida amalga oshgan boʻlib, koʻplab kanallar dasturlarini zamonaviylashtirishga kirishdi

2. 1980-yillarga kelib, sunʻiy yoʻldosh orqali uzatiladigan ilk telekanallar vujudga keldi. Bu esa Arab davlatlari orasida axborot almashinuvini osonlashtirdi va xalqaro ommaviy axborot maydoniga chiqish imkoniyatini yaratdi.

3. Xususiy telekanallarning paydo boʻlishi – Ushbu davrda davlatga qarashli telekanallar bilan bir qatorda, xususiy telekanallar ham paydo boʻla boshladi. Misol uchun, Livan va Misrda birinchi xususiy telekanallar tashkil etilgan boʻlib, ular koʻngilochar va reklama bozori rivojlanishiga katta taʼsir koʻrsatgan (Rugh, 2004, p. 45).

“Oʻtgan asrning 1990-2000-yillarida Arab dunyosi televideniyesida muhim burilish boʻldi. Bu davrda sunʻiy yoʻldosh texnologiyalari ommaviy ravishda rivojlandi, natijada arab telekanallari xalqaro maydonda oʻz taʼsirini kuchaytirdi” (Boyd, 1999, p. 20). Arab davlatlari avval asosan mahalliy va milliy darajadagi telekanallar orqali axborot tarqatgan boʻlsa, 90-yillarning oʻrtalaridan boshlab sunʻiy yoʻldosh orqali efirga uzatiluvchi transmilliy telekanallar paydo boʻldi. Bu esa axborot erkinligi va mintaqaviy jurnalistika rivojiga turtki boʻldi.

Bugungi kunda arab televideniyesi juda murakkab va oʻzaro integratsiyalashgan media tizimga aylandi. Anʻanaviy televizion kanallar bilan bir qatorda, raqamli media, ijtimoiy tarmoqlar va xalqaro axborot tarmoqlari ham katta ahamiyat kasb etmoqda. Koʻplab arab mamlakatlarida milliy axborot tizimining asosi sifatida davlatga qarashli telekanallar faoliyat yuritadi. Ular hukumat siyosatini targʻib qilish, rasmiy axborot yetkazish va madaniy-maʼrifiy dasturlarni namoyish etish vazifasini bajaradi. Arab dunyosida 1990-yillardan boshlab xususiy telekanallar faoliyati kengayib, ommaviy axborot vositalarining diversifikatsiyalashuviga olib keldi. Bugungi

kunda eng mashhur xususiy telekanallar: “MBC Group” (Middle East Broadcasting Center) – Saudiya Arabistonida joylashgan, 1991-yilda Londonda tashkil etilgan bo‘lib, hozirda eng yirik xususiy media tarmog‘iga aylangan. “Al-Jazeera” (Qatar) – 1996-yilda tashkil etilgan, mintaqadagi eng nufuzli mustaqil telekanallardan biri. Al-Arabiya (Saudiya Arabistoni) – 2003-yilda tashkil etilgan bo‘lib, asosan yangiliklar va siyosiy tahlillarni yoritadi. “Bu telekanallar xalqaro darajada ham faoliyat yuritib, nafaqat arab davlatlari, balki G‘arb dunyosidagi tomoshabinlarga ham axborot yetkazib kelmoqda” (Rugh, 2004, p. 45).

So‘nggi yillarda G‘arb davlatlari ham arab tilida axborot tarqatish imkoniyatini kengaytirdi. Ular arab dunyosidagi auditoriya bilan bevosita ishlash uchun o‘z telekanallarini ochdi. Shu humladan, “BBC Arabic” (Britaniya). “France 24 Arabic” (Fransiya). “RT Arabic” (Russia Today Arabic). “Bu telekanallar axborot urushi va global media siyosatining bir qismi sifatida arab dunyosida turli mafkuraviy ta’sir o‘tkazish maqsadida tashkil etilgan” (Sakr, 2007, p. 35).

“Bugungi kunda televideniye faqatgina an’anaviy efir orqali emas, balki raqamli platformalar orqali ham tomoshabinlarga yetkazilmoqda. YouTube va Facebook Live orqali ko‘plab telekanallar o‘z dasturlarini jonli efirga uzatish imkoniga ega bo‘ldi. “Al-Jazeera”, “Al-Arabiya”, “BBC Arabic” va “France 24“ o‘zlarining raqamli nashrlarida maxsus videolar, blog postlar va interaktiv axborot xizmatlarini taklif etadi.” Netflix” va “Shahid.net” kabi platformalar orqali arab tilidagi filmlar va seriallar xalqaro auditoriyaga taqdim qilinmoqda. Bu omillar raqamli media va ijtimoiy tarmoqlarning ahamiyati ortib borayotganini ko‘rsatmoqda” (Fedorov, 2018, p. 40).

Radio - XX asrning eng muhim media vositalaridan biri bo‘lib, u axborot tarqatish, madaniyatni targ‘ib qilish va xalqni xabardor qilishda muhim rol o‘ynagan. Arab dunyosida ham radio o‘tan asrning 20-30 yillardan boshlab keng tarqala boshlagan va bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Arab mamlakatlaridagi radiokanallar dastlab davlat nazorati ostida ishlagan bo‘lsa, bugungi kunga kelib xususiy va xalqaro radiostansiyalar ham faoliyat yuritmoqda.

Arab olamida Misr 1934-yilda birinchi arab milliy radiostansiyasini ishga tushirgan. 1940-yilda Jazoir, 1940-yillarning oxiriga kelib Livan, Iroq va Suriya o‘z radiostansiyalariga asos soldi. Bu davrda radiostansiyalar asosan yangiliklar, diniy ko‘rsatuvlar va hukumat propandasini yetkazish maqsadida foydalainlgan.

1950-yillarga kelib, ko‘plab arab davlatlari mustaqillikka erishdi va o‘z radiostansiyalarini milliy axborot tarqatish vositasi sifatida rivojlantira boshladi. Bu davrda: Milliy tarmoqlar shakllandi, Ko‘p tilli eshittirishlar boshlandi, Madaniy va adabiy eshittirishlar rivojlandi. Bu yillarda radio davlat axborot siyosatining asosiy quroli bo‘lib xizmat qildi va hukumat tomonidan qat’iy nazorat qilindi. 1980-yillarning oxiri va 1990-yillarda arab radiokanallari sun’iy yo‘ldosh

texnologiyalaridan foydalana boshladi. Bu esa: Ko‘p davlatli radioeshittirish tarmoqlarining shakllanishiga olib keldi, Mustaqil va xususiy radiokanallar paydo bo‘lishini rag‘batlantirdi, Xalqaro arab radiokanallari faoliyati kengayishiga xizmat qildi. Bu davrda “BBC Arabic”, “Monte Carlo Doualiya”, “Saut al-Arab” (The Voice of the Arabs) kabi xalqaro radiostansiyalar katta auditoriyaga ega bo‘ldi. Bugungi kunda arab radiokanallarining formati va turlari ancha kengaygan. Bugungi kunda internet orqali eshittiriladigan radiokanallar ham ommalashmoqda. “Spotify”, “SoundCloud” va “Apple Music” kabi platformalar orqali arab radiosi va podkastlar tobora ko‘proq auditoriya to‘plamoqda.

So‘nggi o‘n yillikda raqamli media va ijtimoiy tarmoqlar arab dunyosida axborot tarqatish, ommaviy fikr shakllantirish va madaniy ta‘sir o‘tkazishning eng kuchli vositalaridan biriga aylandi. An‘anaviy media (televideniya, radio, bosma nashrlar) asta-sekin o‘z auditoriyasining katta qismini internetga yo‘naltirdi. Bu jarayon arab jamoatchiligi orasida raqamli platformalar orqali axborot olishning ommalashishiga olib keldi. Ijtimoiy tarmoqlarning arab dunyosidagi roli haqida so‘z ketganda: «Arab Bahori» (2011) va COVID-19 pandemiyasi (2020) jarayonida ijtimoiy tarmoqlarning ta‘siri keskin ortganini kuzatish mumkin. Bugungi kunda “Facebook”, “Twitter” (X), “Instagram”, “TikTok” va “YouTube” arab dunyosida millionlab foydalanuvchilarga ega bo‘lib, axborot tarqatish va jamoatchilik fikrini shakllantirishda asosiy platformalarga aylangan (Fedorov, 2018). Kelajakda sun‘iy intellekt va algoritmik axborot filtrlash texnologiyalarining rivojlanishi ijtimoiy tarmoqlarning ta‘sirini yanada oshirishi mumkin. Shu bilan birga, siyosiy senzura va axborot xavfsizligi muammolari arab davlatlari uchun dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Xulosa. Arab mediyasi tarixan an‘anaviy axborot vositalariga – bosma nashrlar, radio va televideniya tayangan bo‘lsa-da, so‘nggi o‘n yilliklarda raqamli media va ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanishi bilan tub o‘zgarishlarga uchradi. Bugungi kunda “Al Jazeera”, “Al Arabiya”, “MBC Group” kabi yirik media korporatsiyalari nafaqat mintaqaviy, balki global axborot maydonida ham katta ta‘sir kuchiga ega. Lekn, ayrim mamlakatlarda matbuot erkinligi cheklanib, hukumatlar tomonidan media ustidan nazorat kuchaytirilmoqda. Bunday cheklovlar mustaqil jurnalistikani rivojlantirishda muammolar tug‘dirib, axborot olish imkoniyatlarini kamayishiga olib keladi.

Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi natijasida ijtimoiy tarmoqlar, bloglar va mustaqil onlayn platformalar Arab dunyosida axborot tarqatishning asosiy kanallariga aylandi. “Facebook”, “Twitter (X)”, “YouTube” va “TikTok” kabi platformalar orqali yangiliklar tez va keng auditoriyaga yetkazilmoqda. Shu bilan birga, arab mediyasi erkinlik va senzura o‘rtasida muvozanatni saqlash yo‘lida turibdi.



Raqamli media muammolariga keladigan bo'lsak: so'ngi vaqtlarda ijtimoiy tarmoqlarda noto'g'ri axborot va feyk yangiliklar ko'paymoqda. Sun'iy intellekt asosidagi algoritmlar ba'zan axborot oqimini nazorat qilishga xizmat qiladi. Foydalanuvchilarning shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish dolzarb masalaga aylandi.

Kelajakda sun'iy intellekt, virtual haqiqat (VR) va interaktiv media texnologiyalarining rivojlanishi arab mediasini yanada o'zgartirishi kutilmoqda. Bu jarayon nafaqat informatsiya uzatish usullarini, balki jamiyatning media savodxonligi va axborotga bo'lgan munosabatini ham sezilarli darajada o'zgartiradi.

Umuman olganda, arab mediyasi o'zining tarixiy an'alarini saqlagan holda zamonaviy texnologiyalarni faol ravishda o'zlashtirmoqda. Bu esa uni mintaqaviy va global axborot maydonida muhim o'rin egallovchi kuchli platformaga aylantirmoqda.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Amin, H. (2001). *Mass Media in the Arab World: Between Diversification and Stagnation*. – Hampton Press. – 249 p. (in English)
2. Al-Aydi, A. M. (1999). *The Arabic Media Facing Contemporary Challenges*. Al-I'lam al-Arabi Amam al-Tahaddiyat al-Mu'asira. – Ketablink. – 220 p. (in Arabic)
3. Alterman, J. B. (1998). *New Media, New Politics? From Satellite Television to the Internet in the Arab World*. Washington Institute for Near East Policy, 94 p. (in English)
4. Boyd, D. A. (1999). *Broadcasting in the Arab World: A Survey of the Electronic Media in the Middle East*. Iowa State University Press, 401 p. (in English)
5. Fedorov, A. V. (2018). *Media Education and Media Literacy in the Digital Age*. Mediaobrazovaniye i mediagramotnost v sifrovuyu epoxu. Labirint, 240 p. (in Russian)
6. Howard, P. N., & Hussain, M. M. (2013). *Democracy's Fourth Wave? Digital Media and the Arab Spring*. Oxford University Press, 200 p. (in English)
7. Karimov, M. (2020). *Information Society and Mass Communication*. Axborot jamiyati va ommaviy kommunikatsiya. Sharq Publishing House, 180 p. (in Uzbek)
8. Khalil, M. (2010). *Arabic Media: Manifestations of Growth and Risks of Fragmentation*. Al-I'lam al-Arabi: Mazahir al-Numu wa Makhater al-Tafakkuk. Abjjad, 220 p. (in Arabic)
9. Kuznetsov, V. A. (2021). *Arab Media: History, Development, and Perspectives*. Arabskiy SMI: istoriya, razvitiye i perspektivi. SPbSU Publishing House, 220 p. (in Russian)
10. Mellor, N. (2005). *The Making of Arab News*. Rowman & Littlefield Publishers, 280 p. (in English)
11. Rugh, W. A. (2004). *Arab Mass Media: Newspapers, Radio, and Television in Arab Politics*. Praeger Publishers, 300 p. (in English)

12. Salem, S. K., Al-Shami, A. R., & Qalandar, M. (2021). Arab Media Systems. Anzimat al-I'lam al-Arabi. Open Book Publishers, 220 p. (in Arabic)
13. Sakr, N. (2007). Arab Television Today. I.B. Tauris, 260 p. (in English)
14. Yo'ldoshev, A. (2019). Modern Mass Media and Globalization Processes. Zamonaviy OAV va globalizatsiya jarayonlari. Publishing House of the National University of Uzbekistan, 150 p. (in Uzbek)